

## KATTA YOSHDAGI BOG'CHA TARBIYALANUVCHILARI UCHUN INGLIZ TILINI ÓQITISH METODIKASI

*Asila Adhamova - Student of English faculty-II  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda  
Ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.  
Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova.*

### **Annotatsiya**

Mamlakatimizda sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yanada rivojlantirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish muhim. Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda qo'l keladigan ayrim foydali usullar ko'rsatib o'tilgan. Bu usullar asosan kichik yoshdagi bolalarni til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgandir.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, jumboq usuli, til qobiliyati, qo'shiq, tezkor o'yin.

Chet tillarini o'rganish – davr talabi. Shuning uchun ham uni o'rganishni MTTdanoq boshlash kerakligini mutaxassislar ko'p bora ta'kidlashayapti. Xo'sh, MTTda tarbiyalanuvchiga qanday qilib ingliz tilini o'rgatish mumkin?

Ingliz tilini bolaga 4-7 yosh oralig'ida o'rgatish va bunda har bir darsni oldindan mavzularini belgilab olish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, bola zerikib qolmasligi uchun ingliz tilini o'qitishda, o'yin, jismoniy daqiqa, qo'shiq aytish va she'r yodlash kabi usullardan foydalanish mumkin. Bunda oddiydan murakkabga qarab borish tavsiya etiladi. Bitta mavzu o'tilganidan keyin yangisini o'tishdan avval uni takrorlash, turli boshqotirmalar yechish, qiziqarli savol javoblar tashkil qilish tarbiyalanuvchining qiziqishini oshiradi va u bu mashg'ulotlarga bajonidil qatnashadi.

Ingliz tilini o'qitishda ham tarbiyachi yoki mutaxassis ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga ega bo'ladi.

Ta'limiy maqsadda dunyoqarashni kengaytirish, ijodkorlikka o'rgatish, boshqa mamlakat tarixi, a'nanalari bilan tanishtirish nazarda tutiladi.

Tarbiyaviy maqsadda esa o'zi o'rganayotgan tilda gplashadiganlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishga, bag'rikenglikka o'rgatish, kichki 5-6 va katta

10-14 kishilik jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, bunda jamo a'zolariga xushmuomala bo'lish, ular bilan birgalikda ishlash qobiliyatiga ega bo'lish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi maqsad esa bolaning til o'rganishga bo'lsan qiziqishini qo'llab quvvatlash jarayonida unda sabr qila olish, boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish qobiliyatlarini, eshitish, ko'rish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsad qilib olinadi.

MTTdagi ingliz tilidan dars beruvchi muallima albatta turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, bolaning e'tiborini turli audio yozuvlar orqali darsga qaratishi lozim. Aks holda quruq suhbat tarzida o'tilgan mashg'ulot tarbiyalanuvchilarni zeriktiradi. Ular mashg'ulotda o'zlari ham tomoshabin emas, balki to'laqonli ishtirokchi bo'lganlaridagina biror narsani o'rganishlari mumkin.

Mashg'ulotni ingliz tilidagi salomlashish bilan boshlab, birorta ingliz tilidagi she'rni aytish mumkin. 4 yoshli bola harf tanimasligi mumkin, lekin she'rlarni qo'shiqlarni yod ola oladi. Bu esa unda xotiraning rivojlanishiga yordam beradi. Diskka yozib olingan quvnoq qo'shiqlar va she'rlar bolalarni quvontiradi va ular beixtiyor o'sha qo'shiq yoki she'rga jo'r bo'ladilar. Bitta mashg'ulotda 4 tagacha yangi so'z o'rgatish bolani charchatib qo'ymaydi. Birinchi dars o'rgatish keyingisi takrorlash tarzida bo'lishi tarbiyalanuvchi uchun maqbul hisoblanadi.

Mashg'ulotlar haftada ikki marta 3-5 yoshli bolalarga 20 daqiqa, 5-6 yoshlilarga 25 daqiqa, 6-7 yoshlilarga 3 daqiqadan o'tkazilgani maqsadga muvofiq sanaladi.

Bola tili chiqishidan oldin avval eshitgan keyin gapirgan, ingliz tilini o'rganishda ham xuddi shunday. Avval eshitadi keyin gapiradi. Bolaga suratli kitoblar yordamida ertaklar aytardik. Ingliz tilini o'rgatishda ham shu usulni qo'llash mumkin. U avval rasmni ko'radi keyin tasavvur hosil qiladi.

Mavzularni aynan bolalarga yaqin va u tasavvur qila oladiganlaridan tanlaganimiz ma'qul. Masalan, fasllar, mevalar, sabzavotlar, hayvonlar kabi. Masalan bugun bola kuchuk so'zini o'rgandimi, ertasiga kuchukning rangini o'rgatish, indiniga kuchukning sonini qo'shish ham mumkin. Mashg'ulotlarning bir-biriga bog'liqligi bolaning qiziqishiga va bir mavzuda ko'p narsani bilib olishiga sabab bo'ladi.

Bironta qo'g'irchoq olib uni ingliz va u o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydi, unga inglizcha gapiramiz deyish ham bola qiziqishiga sabab bo'ladi. O'g'il bolalar uchun o'g'il bola qahramon tanlash tavsiya etiladi. Demak, o'zbek tilini tushunmaydigan ingliz qo'g'irchoqlar bilan tanishamiz, salomlashamiz, unga o'rganganlarimizni gapirib beramiz. Agar gaplashmasak, qo'g'irchoq xafa bo'ladi, to'g'rimi? Bolalar tabiatan mehribon va u qo'g'irchoq bilan bajonidil gaplashadi. O'zi inglizcha gapiradigan turli qo'g'irchoqlar, maxsus kartolik ovozli moslamalar ham bolajonlar uchun ayni muddao. Faqat ularni o'z o'rnida foydalanishni uddalash

kerak xolos. Umuman olganda, MTTda ingliz tilini o'rgatish bola uchun ham tarbiyachi uchun ham zavqli jarayondir va bu o'sha MTTga bo'lgan talabni oshiradigan omillardan biri bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Bolaga chet tilini o'rgatishni uning juda ham yosh davrlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miya faoliyati to'xtovsiz o'sish va rivojlanishda davom etayotganligi uchun ular miya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta odamlarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish bolalarda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passiv o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi. Quyida sizga ingliz tili darslari davomida o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi bir necha usullar taqdim etiladi.

Qo'shiqlar: Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuylaydilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqni so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez aytishlarni, yoki bo'lmasam bolalar yaxshi ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak.

Multfilmlar: Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko'pgina ro'llar ko'pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo'ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lim vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba'zi otanonalar bolalarning multfilmga bo'lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo

aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib hizmat qiladi.

O'yinlar: 1. Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam) ; Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin o'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beriladi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun ko'ptokcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlash kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo. Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o'rganayotgan bo'ladi. Bu o'yin biroz boshqacharoq qilib o'zgartirsa ham bo'ladi. Biror mavzuga so'z aytish o'rniga, har bir o'quvchi keyingi o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz "say something red" (biror qizil narsani ayting) deb o'yinni boshlashingiz mumkin. Ko'ptokni ushlab olgan birinchi o'quvchi "strawberry" deb keyin o'zi biror mavzu tanlab ko'ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so'z o'ylashi kerakligini ham bilishi lozim.

2. Jumboq : Olingan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun jumboq o'yinlardan foydalanish. Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi. O'yining turlari juda ko'p misol uchun tarbiyachi "qopda nima bor degan" o'yini bolalar bilan o'ynashi mumkin. Xonadagi kichik buyumlarni xaltachaga solib, bolalarga birma bir olishriga ruhsat beradi va bolalar bu buyumlar nomini ingliz tilida aytib berishadi. "Is it a banana (an apple, an orange)?" tarbiyachi baholashga kirishadi, va eng ko'p bal to'plagan guruhni taqdirlaydi. Shu bilan bolalar yanada chet tiliga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi.

Musobaqalar: Bolalar o'rtasida musobaqalar judayam muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Ana shundagina har bir bolada motivatsiya, tilga bo'lgan qiziqish uyg'onadi. Xitoyliklar insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali keladi deb fikr yuritishadi. Buni bolalar timsolida ham korishimiz mumkin, ularda bu yo'l orqali jamlik, raqobat orqali raqibini bilish, atrofni o'rganish ortadi.

Hozirda yangi ommaviy multimedia vositalari ta'lim sohasida keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda o'quv vositalari sifatida, internet va multimedia texnologiyalaridan bolalar bog'chalarida samarali qo'llanilib, kichik yoshdagi bolalarning ta'lim - tarbiyasiga yangi ko'nikmalarni olib kelmoqda. O'zbekistonda bolalar bog'chalarida yangi multimedia texnologiyalari dasturini rivojlantirish hozirgi kunda eng muhim mavzudir. Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limning asosiy modelidir, bolalikdan boshlab sifatli ta'lim asosida bolalarni tarbiyalash va o'qitish zarur. O'zbekistonda yangi ommaviy multimedia vositalarini bog'chalarga tadbiq qilish, bu kelajak avlod chet tilini o'rganishiga katta hissa qo'shadi deb hisoblayman. Lekin har qanday zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan o'quv xonasida ham mahoratli pedogogning o'rni boshqa.

**Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.
2. Feng Wang, Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education [J].